

## O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV IJODI

*Najmiddinova Mahliyo O'tkir qizi*

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O'zMMSI 2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Azizullah Aral*

*Filologiya fanlari*

*bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqandlik mohir sozanda, bastakor va yetuk xonanda Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodiy yo'li va yaratgan sara ijod namunalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Hoji Abdulaziz Abdurasulov bastakorlik namunalari, uy muzeyi, ustoz- shogird an'anasi.

Xalq ijodiyoti katta ummondur. U zamonlar osha ijod ahlining mehnat va ijodiy faoliyati rivojlangani sari yanada boyib kengayib boraveradi. Ushbu asarlar, ijod namunalari milliylik ro'hida yaratilgan bo'lsa, yaratgan asarlari milliy madaniyatimiz ravnaqiga katta hissa qushgan holda xalqimiz xotirasiga muhrlanadi va asrlar davomida yashaydi. Shundan e'tirofga munosib san'atimiz darg'ari talaygina. "Samarqand bulbuli" e'tirofiga sazovvor bo'lgan ustoz san'atkor Hoji Abdulaziz Abdurasulov ham yaratgan asarlari, ijodiy faoliyati va bizga qoldirgan buyuk merosi sababli ustozlik faoliyati yillar oshsada hozirgi yosh avlodgacha kengayib kelayotgan darg'a ustozlarimizdan biridir.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1852 yilda Samarqand shahrida tug'ulgan. Uning otasi Abdurasul yoshligida o'z ukasi Abdulfayz bilan birgalikda Tojikistonning tog'li tumani - Qorategindan kelib, Samarqand shahrida muqim qoladi.

Farzandi Hoji Abdulazizning ilm o'rganishga bo'lgan qiziqishi tufayli ko'p madrasalarda o'qitadi. Yosh Abdulazizning musiqaga bo'lgan muhabbati ustun kelib, qo'lga soz olib chalgan holatda aytim yo'llaridan ham ko'p ustozlardan ta'lim oladi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqa ilmi saboqlarini o'sha davrda mashhur bo'lgan surnaychi Mirzo Mehtardan olgan. Hozir Abdurahmonqul degan sozandadan tambur chertishni o'rganadi. Bu ustozlar Abdulazizni "Shashmaqom" olamiga olib kirishda o'z hissasini qo'shganlar. Maqom hofizi eng avvalo Shashmaqomning ham cholg'u (Mushkilot), ham aytim-sho'ba (Nasr) yo'llarini ijro etishda an'anaviy yetakchi o'rin tutgan tanbur cholg'usini o'rganishi, unda o'ziga jo'rnovozlik qila olishi mumtoz talablardan bo'lgani bois Hoji Abdulaziz Rasulov birinchi galda bu cholg'uni amaliy o'zlashtirishga g'ayrat qiladi va sozanda Hoji Rahimberdi ustozligida

Shashmaqom Mushkilot bo‘limini (cholg‘u kuy yo‘llarini) ijro etishga erishadi. Soz chalmagan xonanda “butun” bo‘la olmaydi deganlaridek, ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulov to‘la to‘kiz xonanda va sozandalikka intilganlar.

Ayni paytda Shashmaqom Savtlarini shoxobchalari bilan “o‘qishni” (aytishni) dastlab Boruh ismli hofizdan o‘rganib, keyinchalik (1880-yillari) esa atoqli hofiz Ota Jalol Nosir rahbarligida Shashmaqomning Saraxbor, Talqin va Nasr sho‘balarini aytish mahoratini o‘zida hosil qilgan edi. Shu kabi qattiq mehnat va yillar orasida Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomni ham cholg‘uchi, ham hofiz sifatida mukammal biluvchi ustoz bo‘lib yetishadi.<sup>1</sup>

Hoji Abdulaziz murakkab ashula yo‘llarini o‘z ovozigga moslab, ijodiy yondoshgan holda o‘zbek va tojik tillarida mahorat bilan ijro etgan. U «Gulzorimga Zebo pari», «Beboqcha» va «Ushshoq» yo‘llariga Namudi Uzzol, «Abdurahmonbegiga» Namudi Navo avjlarini bog‘lab, ularning ta’sirchanlik va yoqimlilik, murakkablik kuchini orttirgan. «Ushshoq» shu sababli ham «Ushshoqi Hoji» va «Samarqand Ushshog‘i» nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Bastakor yaratgan «Gullar bog‘i» ashulasi hozir ham xalqqa manzur. Xonanda repertuarida xalq ashullalari va maqom yo‘llari bo‘lib, ular ichida mumtoz musiqa asarlari asosiy o‘rin tutgan. Jumladan, «Ushshoq» uning «Rosti Panjgoh», «Iroq» va «Navo» maqomlari yo‘li, «Abdurahmonbegi 1», uning ufori, «Nasrullovi», «Iroq»ning qashqarchasi va ufori, «Gulyor», «Orazi Gulyor», «Ufar», «Arzimni aytay», «Qurbon o‘lam» va boshqa ko‘plab kuy va ashulla yo‘llari alohida ajralib turadi. Ularni Hoji Abdulaziz Sharq mumtoz shoirlari Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Amiriy, Fazliy kabilarning g‘azallari bilan aytgan. Hoji Abdulaziz mohir sozanda sifatida ham tanilgan bo‘lib, maqom yo‘llarini tanbur va dutorda ijro etgan ko‘pgina ashullalar 1909-yildan boshlab gramplastinka va fonograflarga yozib oligan. Mashhur xofiz tomonidan yaratilgan «Bebog‘cha», «Gulzorim», «Bozurgoniy», «Samarkand Ushshog‘i», «Ushshog‘i Xoji», «Iroqi Xoji». «Qurbon o‘lam», «Arzimni aytay», «Mustahzod» «Chapandozi Navo», «Nasrulloviya», «Chapandozi Gulyor» kabi mumtoz qo‘shiqlar kuy va qo‘shiq sevar xalqimizning yuragidan joy olgan. Hofizning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, u san‘at gulshaniga katta bir yangilik bilan kirib keldi. U dutor cholg‘usida maqom yo‘llarini ijro etib, o‘zining davrigacha bo‘lgan an‘ana - tanbur va setorda ijro etish qoidasini buzdi. Bu esa Xoji Abdulaziz Abdurasulovning aql-u zakovat, teran fikrlash qobiliyat egasi, musiqashunos ekanligidan yorqin dalolat berib turibdi.<sup>2</sup> Bir asar yaratish yoki unga yangilik kirish hamma san‘at ustalarining ham qo‘lidan kelavermaydi, faqatgina Alloh yuqtirgan qobiliyat, katta mehnat bilan natijaga

<sup>1</sup> O.Ibrohimov “Maqom asoslari” T-2018. 133-bet.

<sup>2</sup> Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала N 56. Част-4. ноябр-2024. Rashidova Saodat. “Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayot yo‘li” 199-200bet

erishiladi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov yaratgan asarlar ham yillar davomida ijod ahlining ijro etib o'rganiladigan va o'rgatilib kelinayotgan bebaho durdonalaridandur.

Abdurasulovning ijrochilik repertuarida 200dan ortiq xalq qo'shiqlari, maqom yo'llari va mumtoz ashulalar bo'lgan. Ulardan "Ushshoq" uning taronasi va qashqarchasi, "Rosti panjigoh", "Iroq", "Navo" maqom yo'llari, shuningdek, "Gulyor", "Arzimni aytay", "Qurbon o'lam" kabi asarlar alohida o'rin tutadi.<sup>3</sup> Yuqoridagi asarlar xalqimizning qon qoniga singib ketgan va hozirgacha o'z qadr qiymatini yo'qotmasdan kelayotgan buyuk asarlar qatoridadir.



Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1936-yil 9-yanvar kuni vafot etadi. "Shohizinda" qabristoniga dafn etilgan. 84 yillik umri davomida san'at sohasida buyuk ishlar qildi umrini ilmga bag'ishladi. Uning yashab ijod etgan uyida katta qizi Muqaddam ona yashab kelgan keyin qizlari 1990 – yilda vafod etadi va uy nevarasi Gulchehra Rasulovaga meros qoladi.



<sup>3</sup> INTER EDUCATION& GLOBAL STADY. Vol3 M.E.Turg'unboeva "O'zbek bastakorlik ijodiyotida Hoji Abdilaziz Abdurasulovning o'rni"ISSUE9.392. 2023y

2019-yilda 15-may kuni Samarqand viloyati hokimi bir guruh madaniyat xodimlari bilan Hoji Abdulaziz Abdurasulov yashagan uyni borib ko'rdilar. Ancha ta'mirtalab, qarovsiz ahvolga tushib qolgan uyda viloyat hokimi E.O.Turdimov topshirig'i bilan yangi uy-muzey tashkil etilishi belgilandi va bir qancha ishlar reja qilindi. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 6-maydagi "Samarqand shahridagi ayrim madaniy meros obektlaridan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi 269-sonli qarori bilan madaniy meros obekti sifatida davlat ro'yxatiga olingan. Samarqand shahri Hoji Abdulaziz Abdurasulov ko'chasi, 49-uy manzilida joylashgan tarixiy hovli Samarqand davlat muzey – qo'riqxonasiga operativ boshqaruv asosida bepul berilishi belgilangan. Samarqand viloyat hokimining 2020 yil 11-iyunda qabul qilingan 68-F- sonli farmoyishi bilan tuzilgan ishchi guruhi tomonidan belgilangan tartibda, dalolatnoma asosida Samarqand davlat muzey-balansiga madaniy meros obekti sifatida qabul qilinib, muzey-qo'riqxonasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan shtat birliklari shakllantirildi.<sup>4</sup> Bunday ezgu ishlar yoshlar va kelajak avlod qalbida san'atga bo'lgan muhabbat va qadr tuyg'ularini shakllantiradi.

Yuqorida aytganimizdek Ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulov maqom kuylarini yaxshi bilgan va o'z kuylarida maqom an'analaridan go'zal tarzda foydalana olgan ijodkor ustoz sifatida hammamizga mashhurdir.

Xo'ji Abdulazizni nafaqat buyuk san'atkor, balki butun bir maktab yaratgan siymo sifatida baholanadi. Uning ijodiy yo'li keyingi avlod xonandalari va sozandalari uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ustozning ijodiy uyini davom ettirishga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib borayotgani esa, uning merosi hanuz tirik va dolzarb ekanidan dalolat beradi.

Shu bois, Xo'ji Abdulaziz Abdurasulov merosi milliy musiqa san'atimizning bebaho boyligi bo'lib, uni chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish bugungi avlod zimmasidagi muhim vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1- O.Ibrohimov "Maqom asoslari" T-2018. 133-bet.
- 2- Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала N 56. Част-4. ноябр-2024. Rashidova Saodat. "Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayot yo'li"199-200bet
- 3- INTER EDUCATION& GLOBAL STADY. Vol3 M.E.Turg'unboyeva "O'zbek bastakorlik ijodiyotida Hoji Abdilaziz Abdurasulovning o'rni"ISSUE9.392. 2023y
- 4- Ta'lim va Rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jo'rnali. Abdurahmon Murodov "Hoji Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyi"6-jild. Nshr 02. 60-bet.

<sup>4</sup> Ta'lim va Rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jo'rnali. Abdurahmon Murodov "Hoji Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyi"6-jild. Nshr 02. 60-bet.